ZAFARON O'SIMLIGINING DORIVORLIK HUSUSIYATLARI

Umarova Zulfizar Muhammadzokirovna

Andijon Davlat Tibbiyot Instituti

Ishning maqsadi: Zafaronning tibbiyotdagi foydali tomonlari va qo'llanilishini o'rganish. Xalq tabobatida zafaronning o'rni. Qizil oltin-zafaronning jigar xastaliklarini davolashda, immun tizimini tiklashdagi foydali tomonlarini ko'rib chiqish.

Tadqiqot material va usullari: Buyrakdagi toshlarni tushirish uchun zafaron tolalari yanchilib, asal bilan birga har kuni ikki marotaba iste'mol qilinadi. Peshob yo'llaridagi toshlarni tushirish uchun bir qoshiq quritilgan zafaronga 250-300 ml qaynoq suv quyib, damlama tindiriladi. Har kuni ikki marta ovqatdan oldin ichish maqsadga muvofiq. Jigar xastaliklarida ham zafaron albatta foydalidir.Jigar xastaliklarda o'n dona mayiz, ikki choy qoshiq zafaron 250 ml suvda tindirilib qabul qilinsa va bu bir oy davomida ichib turilsa jigar hujayralarini tiklanishiga, jigarning filtiratsiya qilish xususiyatini ham yanada oshiradi. Kuchli bosh og'riganda yoki quloq shamollaganda zafaron suvi paxta yoki doka bilan ho'llab kasal a'zoga bosilganda barcha og'riqlarni qoldiradi.

Tadqiqotlar natijalari: Zafaron nafaqat buyrak va peshob yo'llaridagi toshlarni tushirishga yordam beradi, balki immun tizimini tiklash jarayonlarini faollashtiradi, jigar kasalliklarini bartaraf etadi, xotirani ham yaxshilaydi, ko'z kasalliklarida ham yordam beradi. Zafaron organizmdagi hujayralarini tiklanishiga yordam beradi va hujayralarini oziqlantiradi, terini silliq qiladi, xotira va aqliy faoliyatni yaxshilaydi, kayfiyatni ko'taradi. Zafaron 100 dan ortiq kasalliklarni davolovchi shifobaxsh xossalarga ega. Zafaronning shifobaxshlik xossalari quydagilarni o'z ichiga olgan: qonni tozalash (qonni yangilaydi va tozalaydi, yurak-qon tomir tizimining mustahkamlovchi va organizmdagi hujayralarni oziqlantirish) xususiyatiga ega, miya faoliyatini aktivligini taminlaydi (bosh miya to'qimalarini o'stiradi, xotirani yaxshilaydi), bosh aylanishi, bosh o'riqlarini to'xtatish xususiyatiga ega. Zafaron damlamasi oshqozon-ichak faoliyatini ham meyorga keltiradi, ko'rish qobilyatini tiklaydi. Terining kuygan va shish paydo bo'lish holatlarida ularni davolaydi. Nafaqat zafaron damlamasi balki zafaronning gulini hidlash ham organizmga foydalidir. Agar zafaron guli hidlansa insonning nafas olish organlariga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi, tinchlantiradi va uyqusizlikda yordam beradi.Bundan tashqari zafaron qorinning ochish hissini ham kamaytiradi. Zafaronni kosmetikada ham qo'llash mumkin undan terini silliq va yoshartiruvchi vositalar tayyorlashda foydalanish mumkin.





Xulosa: Qadim zamonlardan ma'lumki zafaron nodir va bemisl xususiyatga ega shifobaxsh o'simlikdir. U og'riq qoldiruvchi, quvonch va xursandchilik baxsh etuvchi, tushkunlikdan chiqaruvchi, quvonch gormoni - serotanin ishlab chiqarish xususiyatiga ega o'simlikdir. Shunday qilib zafaron - inson doimiy iste'mol qilisga o'rganib qolmaydigan, yengil moddadir. Zamonaviy tibbiyotda zafaron ko'zga tomiziladigan dori tayyorlashda va umumiy quvvatlantiruvchi turli dori darmonlar tayyorlashda ishlatiladi. U qaynoq sut bilan ichilsa bosh miya faoliyatini tiklab, xotirani ham yaxshilashi aniqlangan. Agar asal bilan iste'mol qilinsa, buyrakdagi toshlarni maydalanishiga ham yordam beradi. Xalq tabobatida zafaronning choyi nafas yo'llari kasalliklarini bartaraf etishda va yurak-qon tomir kasalliklariga qarshi qabul qilish mumkin. Zafaron guli tarkibida tiamin, karotin, fosfor, kalsiy va turli vitaminlarga boy. Zafaronning kimyoviy tarkibi: 10-12% suv, 5-7% mineral moddalar, 5-8% moy, 12-13% oqsil va oz miqdorda yog' ekstraktidan iborat o'ziga xos va xushbo'y yoqimli moddalardan tarkib topgan. Zafaron o'rta asrlardan beri baxosi va qadri tushmay kelayotgan yagona zirafor undan farmatseftikada ham foydalanish mumkin. Zafaron to'g'risida Ibn Sinoning fikri quydagicha bo'lgan: "Zafaron damlamasidan yoki choyidan ichish rangni chiroyli, ko'zni esa ravshan qiladi, yurakni quvvatli qiladi. Balg'amni ko'chishini osonlashtiradi va nafas a'zolarini kuchli qiladi".